

# TURIZM

Boysun, Rishton, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarining turistik salohiyatini

## TURIZM MANZIL



BOYSUN tumani



CHUST tumani



RISHTON tumani

## YANGILIKLAR



"Ipak yo'li bo'ylab turizm tarmoqlarini yaratish" mavzuida xalqaro konferensiya

2024-03-29



O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini Yaponiyada

2024-05-10



"Rishton tumani turizm sohasi rivojlantirish" mavzusida konferensiya tashkil etildi

2024-05-10



## BOYSUN tumani

Surxondaryo viloyati tarkibidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimol-sharqdan Sariosiyo tumani, shimol-g'arbdan Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani, g'arbda Dehqonobod tumani, janubdan Qiziriq, Bandixon, tumanlari, janubi-g'arbdan Sherobod tumani bilan chegaradosh. Maydoni 3,72 ming km. Boysun tumanida doimiy aholi soni 115.9 ming kishini tashkil qiladi.

## CHUST tumani

Namangan viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Sharqdan To'raqo'rg'on, shimoli-sharqdan Kosonsoy, janub va g'arbdan Pop, janubi-sharqdan Mingbuloq tumanlari, shimoldan Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,92 ming $km^2$. Aholisi 200 ming kishi. Tumanda 1 shahar (Chust), 11 qishloq fuqarolari yig'ini mavjud.





## RISHTON tumani

Rishton tumani – Farg'ona viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. 1959-yil 7-martda So'x tumani bilan birlashtirilgan. 1990-yil 27-fevralda So'x tumani ajralib chiqqan. Shimoldan Bag'dod, janubiy-sharqdan Oltiariq, g'arbdan O'zbekiston va Uchko'prik tumanlari, janubdan Qirg'iziston bilan chegaradosh. Maydoni 0,42,1 ming $km^2$. Aholisi 150.2 ming kishi (2003). Tumanda 1 shahar (Rishton) va bir nechta qishloq fuqarolari yig'ini bor.

## YANGIQO'RG'ON tumani

Yangiqo'rg'on tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Yangiqo'rg'on tumani Namangan viloyatining shimoliy qismiga joylashgan. Yangiqo'rg'on tumanining markazi Yangiqo'rg'on shaharchasi viloyat markazidan 22 km uzoqlikda joylashgan. Umumiy yer maydoni 540 kvadrat kilometrdan iborat.



## MADIA BAZA

RASMLAR



VIDEOLAR

